



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2022 - yil 31 - may

91-5-74-Q/22

Nurota tumani hokimligi

Nurota tumanining 2023-yil uchun mahalliy byudjeti loyihasini hamda 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini tayyorlash to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 90-92-moddalariga asosan, Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 27-maydagi 127-5-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, tuman moliya bo'limining 2022-yil 31-maydagi 01-12-238/20-03-35/135-sonli murojaatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 27-maydagi “2023-yil uchun viloyat mahalliy byudjeti loyihasini hamda 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini tayyorlash to'g'risida”gi 127-5-0-Q/22-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin hamda tuman moliya bo'limining 2022-yil 31-maydagi 01-12-238/20-03-35/135-sonli murojaatini inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

tumanning 2023-yilgi mahalliy byudjeti loyihasini hamda 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini tayyorlash, ko'rib chiqish va viloyat moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish bo'yicha ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga;

tuman mahalliy byudjetidan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlarining 2023-yil byudjet so'rovini hamda 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini tuman moliya bo'limiga topshirish muddati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman moliya bo'limi (S.Haydarov) uch ish kuni ichida kelgusi 2023-moliya yili hamda 2024-2025-yillar uchun tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari, byudjet mablag'lari oluvchilar va hududiy mablag'larni taqsimlovchilarga byudjet so'rovini yuborish choralarini ko'rsin.

4. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan tumandagi byudjet tashkilotlari 2023-yil byudjet buyurtmasini joriy yilning 1-iyuniga qadar, 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini o'z muddatida tuman moliya bo'limiga topshirilishini ta'minlasin.

5. Tuman moliya bo'limi (S.Haydarov) 2023-moliya yili uchun tuman mahalliy byudjeti loyihasini hamda 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini viloyat moliya bosh boshqarmasiga joriy yilning 10-iyunidan kechiktirmasdan topshirish choralarini ko'rsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari vazifasini bajaruvchi R.Azimov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev

Nurota tuman hokimining
2022 yil 31 maydagi
91-5-74-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Nurota tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjeti loyihasini hamda 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini tayyorlash, ko'rib chiqish va viloyat moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish bo'yicha ishchi guruhi tarkibi

T/R	F.I.SH		Lavozimi
1	S.Haydarov	-	tuman moliya bo'limi mudiri, ishchi guruh rahbari
2	D.Abdunazarov	-	tuman moliya bo'limi mudirining o'rinbosari, ishchi guruh rahbari o'rinbosari
3	B.Bobonazarov	-	tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri
4	J.Boboqandov	-	tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri
5	Sh.Xalilov	-	tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i
6	A.Karimov	-	tuman madaniyat bo'limi boshlig'i
7	U.Qahhorov	-	sportni rivojlantirish tuman bo'limi boshlig'i
8	O.Qurbonov	-	tuman moliya bo'limi ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'limi boshlig'i
9	J.Luqmonov	-	tuman moliya bo'limi sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish, ijtimoiy himoyalash va boshqa ijtimoiy soha bo'limi boshlig'i
10	Z.Saidov	-	tuman moliya bo'limi obodonlashtirish va narxlarni shakllantirish, kommunal yo'l xo'jaligini rivojlantirishni moliyalashtirish bo'limi boshlig'i
11	F.Tagayev	-	tuman moliya bo'limi budjet daromadlari bazasini mustahkamlash va budjetlararo munosabatlar bo'limi boshlig'i

Nurota tuman hokimining
2022 yil 31 maydagi
91-5-74-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Nurota tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining 2023-yilgi byudjet so'rovini hamda 2024-2025-yillar uchun byudjet mo'ljallarini tuman moliya bo'limiga topshirish muddatlari

№	Tashkilot nomi	Muddati
1	Veterinariya bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
2	Nurota tuman XKT va OOMX davlat markazi	2022-yil 1-iyungacha
3	Nurota tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	2022-yil 1-iyungacha
4	Madaniyat va sport ishlari bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
5	Tabiiy me'moriy majmua muzeyi	2022-yil 1-iyungacha
6	Bandlikka ko'maklashish va AIMQ markazi	2022-yil 1-iyungacha
7	Nurota tuman Hokimligi	2022-yil 1-iyungacha
8	Nurota tuman ijtimoiy ko'nikma bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
9	Nurota tuman fermer xo'jaliklarida buxgalteriya xisobi va xisobotini yuritish markazi	2022-yil 1-iyungacha
10	Qishloq xo'jaligi bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
11	Tuman Moliya bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
12	Tuman Yoshlar ishlari agentligi	2022-yil 1-iyungacha
13	Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
14	Xalq ta'limi bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
15	Axborot kutubxona markazi	2022-yil 1-iyungacha
16	Maktabgacha ta'lim bo'limi	2022-yil 1-iyungacha
17	Bolalar o'smirlar sport maktabi	2022-yil 1-iyungacha
18	5-son Bolalar musiqa va san'at maktabi	2022-yil 1-iyungacha
19	Nurota tuman tibbiyot birlashmasi	2022-yil 1-iyungacha
20	Nurota SEO markazi	2022-yil 1-iyungacha